

SHARQ ALLOMALARI PEDAGOGIK TA'LIMOTI ASOSIDA YOSH AVLOD KAMOLOTIDA SHAKLLANADIGAN SIFATLAR

Nuriddinov Azizbek

*Andijon ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
estrada badiy so'z ustasi yo'nalishi oqituvchisi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs kamolatida allomalr o'g'itlari, ular tutgan ilmiy-ijodiy ta'limotlar haqida so'z yuritilgan. Sharq allomalarining tarbiyaning inson qalbida muhim ahamiyat kasb etishi borasida yaratgan ilmiy asarlari tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, fotiha, ma'naviy tarbiya, an'anaviy meros, ta'lim-tarbiya.

Аннотация: В данной статье речь идет об алломарских учениях в области совершенствования личности, о научно-творческих учениях, которые они придерживаются. Изложен анализ научных трудов восточных ученых о важности воспитания в душе человека.

Ключевые слова: национальная ценность, благословение, духовное воспитание, традиционное наследие, образование-воспитание.

Abstract: This article deals with the Allomarian teachings in the field of personality improvement, the scientific and creative teachings that they adhere to. The article presents an analysis of the scientific works of Oriental scientists on the importance of education in the human soul.

Keywords: national value, blessing, spiritual education, traditional heritage, education-upbringing.

Kamtarlik – inson ichki ma'naviy dunyosining namoyon bo'lishidir. Agar insonning qonida, qalbida, yumshoqlik, sahovat, odob-andisha, sharm-hayo, or-nomus, oriyat bolmasa, ming harakat qilmasin, baribir, odamlar ko'ziga kamtar bo'lib ko'rina olmaydi.

O'zbek xalqi urf-odatida, milliy qadriyatlarida takabburlik qiluvchilar, firibgarlar, maqtanchoqlar, manmanlar keskin qoralanadi. Kamtarga kamol, manmanga zavol, degan o'g'itlar behikmat emas.

Tarixchi Xondamir "Mukomirul-ahloq" kitobida: "Boshingga takabburlik havosini keltirma. Chunki takabburlik bilan hech kim biror joyga yetgan emas. Chunki takabburlik kabi shikastlikni odat qil, bu bilan har nafasda minglab ko'ngilni ovlaysan", - deb ko'rsatgan edi.

Xullas, har birimizni imon, poklik va halollik, or-nomus, sharm va hayo, kamtarlik, qo'yinki insonni bezovchi go'zal xulq-odob, ahloq kabi muqaddas fazilatlarni egallashimiz zarur.

Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p. Shulardan biri farzandning ota-onaga va ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati masalasidir.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab, hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri ota-onani farzandlar tomonidan yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromni, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchig'i, bitmas tuganmas boyligidir.

Buyuk bobomiz Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani hurmat qilish "... farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizimating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang, shu ikki insonning roziligini ol! Tunu-kuningga nur berib turgan – birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chizig'idan tashqari bir qadam ham bosma. Hamma hizmatini sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni ham qil".

O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, ahloqiy, ma'naviy mezonlari bor. Quyida biz shulardan ba'zilar, turmush uchun zarurlari haqida to'xtab o'tishi lozim topdik, zero, busiz kabi oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan holi bo'lmas degan niyatdamiz. Aytmoqchi bo'lgan gaplarimizni eshitgan bo'lsangiz, yana bir bor eshitsangiz foydadan holi emas.

Rizq-ro'z tongda har bir odamga, oilaga ulashiladi. Kimki g'aflat bosib, o'rnida yotaversa, rizqidan quruq qoladi, deyiladi. Barvaqt turilsa, ish unumli, o'sha kun xayrli bo'ladi.

Yuz-qo'lini yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lini yuvgandan so'ng kichiklar kattalarga salom beradilar, ayollar nonushta tayyorlaydilar, qizlar-kelinlar hovli, ko'cha supurib, suv sepib qo'yadilar.

Ish yoki o'qishga oilaning tabarruk yoshlilardan fotiha olib ketilishi ahloq-odob doirasiga kiradi, qaytanga, avval ularga uchrashib salom beriladi, hol-ahvol so'raladi.

Oilada odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga yetgan farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochiq-sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so'zlarni aytmaydilar. Ko'chaga uy kiyimida chiqilmaydi va boshqalar.

Aytaversak, o'zbek oilasining fazilatlari ko'p, qonunlarda belgilanmagan, ammo, millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o'zlashtirishi ham farz va ham qarzdor.

Chunonchi, oilada ota-ona, qaynona-kelin, qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarning me‘yori, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlarning samimiyat darajasi xam yoshlarga sog‘lom fikrning, sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, ma’suliyat kabi ijodiy ma’naviy fazilatlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Halqimizga xos ustuvor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindosh-urug‘larning bevosita aralashuvida yuz beradi.

Ma’naviy tarbiyada o‘zbek xalqining boy an’anaviy merosdan keng foydalanish uning ta’sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘la oladi. Yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma’naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy – ma’naviy merosi o‘zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi.

Buyuk ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga doir fikrlari, o‘gitlarini yoshlikdan boshlab o‘rgatish ular nutqini o‘stirish bilan birga bolalarning odob-ahloqli etib tarbiyalashga yordam beradi. Har birimizni iymon, poklik va halollik, or-nomus, sharm va hayo, kamtarlik, qo‘yinki insonni bezovchi go‘zal xulq-odob, ahloq kabi muqaddas fazilatlarni egallashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov S. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T. 1997.
2. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T. “Sharq”, 1998.
3. Yusupov E. Ma’naviyat mezonlariga yangicha yondoshuv. “O‘zbekiston ovozi”, 1995, 22 aprel.
4. Botirova Khilola Tursunbayevna. (2023). IN THE PRACTICE OF INSTRUMENTAL PERFORMANCE, STUDENTS ARE TAUGHT TO THINK INDEPENDENTLY AND FORMATION OF FEATURES OF CREATIVITY. *Current Research Journal of Pedagogics*, 4(11), 99–103. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-17>
5. Botirova Khilola Tursunbayevna. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL - MORAL QUALITIES OF STUDENTS. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 3(06), 20–30. <https://doi.org/10.37547/social-fsshj-03-06-04>
6. Botirova Khilola Tursunbayevna. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. *Current Research Journal of Pedagogics*, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>
7. Tursunbayevna, B. K. (2023). A Look at the History of Our Instruments in the Performing Arts. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 4(11), 62-66. Retrieved from <https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/447>
8. Ботирова, Хилола. "The practice of applying pedagogical technologies in the learning process to playing the Chang instrument." *Общество и инновации* 2.3/S (2021): 330-339